

## TOURISM INFRASTRUCTURE AND INVESTMENTS: THE KEY TO ECONOMIC DEVELOPMENT

**Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi**

Tashkent State University of Economics, Faculty of Tourism, 1st year student of the Tourism and Hospitality Department

---

### A R T I C L E I N F O.

**Keywords:** World Tourism Organization (UNWTO), tourism infrastructure, investments, economic development, Tashkent International Airport, transport infrastructure.

---

### Abstract

This scientific article is dedicated to exploring the opportunities for strengthening the country's economy through the development of tourism infrastructure and the attraction of investments. It analyzes modern infrastructure projects in the tourism sector, their economic efficiency, and their contribution to regional development. In conclusion, it emphasizes that investments in tourism infrastructure are a strategic factor in the overall economic progress of the country. This article may be useful to economic policymakers, entrepreneurs, and professionals working in the tourism industry.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2025 LWAB.

---

### KIRISH.

Bugungi global iqtisodiyotda turizm sektori jahon YAMning 10% dan ortig`ini tashkil etuvchi va ish o`rinlarini yaratishda muhim rol o`ynaydigan asosiy yo`nalishlardan biridir [1]. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko`ra, turizm sohasiga yo`naltirilgan har bir dollar iqtisodiyotda bir necha barobar katta daromad keltiradi. Ushbu muvaffaqiyatlarning asosi esa sifatli va rivojlangan turizm infratuzilmasidir. Shuningdek, turizm infratuzilmasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy drayverlardan biri hisoblanib, u transport, mehmonxona biznesi, ovqatlanish va madaniy obyektlarni qamrab olib, turistlar uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan. O`zbekiston ham turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali global turizm bozorida o`z ulushini kengaytirishga harakat qilmoqda. Mamlakatimiz o`zining boy madaniy merosi va qulay geografik joylashuvidan kelib chiqib, turizmni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylantirishga intilmoqda.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagи PQ-109 son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo`nalishlardi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasining 68-69-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Strategik islohotlar agentligi va Turizm qo`mitasi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yaratishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Bunga ko`ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimizda turizmning bir qator yangi turlariga ruxsat beriladi [2].

Shu jumladan, turizm nafaqat iqtisodiy o`sishni rag`batlantiradi, balki yangi ish o`rinlarini yaratish, xalqaro integratsiyani kuchaytirish va madaniy merosni asrab-avaylash uchun mustahkam poydevor ham hisoblanadi. Chunonchi, turizm infratuzilmasiga investitsiya jalb qilish orqali ichki va tashqi

faollikni oshirish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va xizmatlar sektorini kengayishini ta'minlashimiz mumkin.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Turizm infratuzilmasi va investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko`rib chiqiladi. Turizm sohasidagi infratuzilma mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, ish o`rinlarini yaratish va mintaqalararo iqtisodiy farovonlikni oshirishda asosiy o`rin tutadi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar ko`plab xorij tadqiqotchilari va hamyurtlarimiz tomonidan tahlil qilingan.

Geoffrey Inskeep o`zining “Tourism Planning An Integrated and Sustainable Development Approach” (1991) asarida turizm infdratuzilmasi tarkibiga kiruvchi elementlar, masalan transport, aloqa, energetika, suv ta`minoti, sanitariya va mehmonxona xizmatlari turistik joylarni samarali ishlash uchun zarur bo`lishini ta`kidlagan. Inskeepning fikricha, sifatlari infratuzilma turistlarning tajribasini yaxshilaydi, mintqa iqtisodiyotini rivojlantiradi va mahalliy aholi uchun qo`shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga u barqaror rivojlanishni ta`minlash uchun infratuzilmani ekologik barqarorlik va ijtimoiy ehtiyojlar bilan muvozanatlash zarurligini urg`ulagan. Bu yondashuv turizmni rejalashtirishda asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Investitsiyalarning roli masalasida Dwyer va Forsyth xorij sarmoyadorlari orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilgan. Ularning “Tourism Economics and Policy” (2010) asarida turizm investitsiyalari, jumladan infratuzilma va xorijiy sarmoyadorlarning iqtisodiy ta`siri batafsil yoritilgan. Ularning yana bir “International Handbook on the Economics of Tourism” (2006) asari va boshqa tadqiqotlarda investitsiyalar turizm sektorining raqobatdoshligini oshirish va iqtisodiy o`sishga ta`sir qilish vositasi sifatida tahlil qilingan.

M.T.Aliyevaning “Turizm asoslari” (2022) kitobida ham turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy ta`siri haqida tahlil qilingan. Uning ta`kidlashicha, turizmning asosiy iqtisodiy ta`siri valyuta tushumlari, davlat daromadlariga qo`shimchalar, ish bilan bandlik va daromadlarni yaratish hamda mintaqalarni rivojlantirishni rag`batlantirish bilan bog`liqligini ko`rsatadi. Dastlabki ikkita ta`sir makro yoki milliy darajada, qolgan uchta ta`sir sub-milliy darajada ko`rinishi ta`kidlangan [3,46].

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadi, turizm infratuzilmasi va investitsiyalarni samarali boshqarish iqtisodiy o`sishni ta`minlash, xalqaro maydonda raqobatdoshlikni oshirish va mintaqalararo tenglikni ta`minlashda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur ilmiy maqolada turizmning iqtisodimiz rivojlanishiga ta`siri uni yana kengroq targ`ib qilish, ko`proq mahalliy hamda xorij investitsiyalarini jalb etish va shu bilan bir qatorda ushbu soha orqali aholi bandligini oshirish ham tahlil qilinadi.

Shuningdek, hozirgi kunda O`zbekistonda turizm sohasining rivojlanish darajasi statistik ma'lumotlar bilan ko`rsatilib, bunda Jalon turizm tashkiloti (UNWTO) va yana bir nechta ishonchli online manbaalarga tayaniladi. Jumladan, ushbu sohani yanada rivojlantirish va ko`proq daromad olib iqtisodimiz hamda aholimiz farovonligini oshirish maqsadida chiqarilayotgan Prezident qaror va farmonlari ham keltiriladi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, analiz, sintez, statistik guruhash va boshqa ilmiy usullardan keng foydalilanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Turizm infratuzilmasi va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta`sirini tahlil qilishda asosiy e'tibor hududlarning rivojlanish dinamikasi, chet el va mahalliy sarmoyadorlarning jalb qilinishi hamda turizm sohasida yangi ish o`rinlarining yaratilishiga qaratildi.

Infratuzilma rivojlanishi turizm sektorining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Tahlilar shuni ko`rsatadiki, yuqori darajadagi transport, aloqa, mehmonxona va dam olish maskanlari tizimi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri bo`lib xizmat qiladi. Jahon sayyoqlik tashkiloti ma'lumotlariga ko`ra, yaxshi rivojlangan infratuzilmaga ega davlatlar turizm sohasidan YaIMning 10-15%gacha daromad oladi [4]. Shuningdek, turizm infratuzilmasi O`zbekiston YaIMi ga ham o`z ta'sirini o`tkazmoqda. Jumladan, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida jami 4242,9 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsatlarda O`zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko`rsatkichlarni o`tgan yilining mos davri bilan solishtirganimizda 566,2 ming nafarga yoki 15,3 % ga oshganligini ko`ramiz [5]. Ayrim tahlillarga ko`ra, infratuzilma rivojlanmagan hududlarda turistik faoliyatning cheklanishi, xizmatlar sifati pastligi va turistlar oqimining kamayishi kuzatiladi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarning to`liq ro`yobga chiqmasligiga sabab bo`lmoqda.

Turizm sohasiga jalb qilingan investitsiyalar nafaqat infratuzilmani rivojlantirish, balki yangi xizmat turlarini taklif qilish orqali hududning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhum rol o`ynaydi. O`zbekistonda so`nggi yillarda turizmga yo`naltirilgan investitsiyalar natijasida yangi mehmonxonalar, dam olish maskanlari va turistik yo`laklar tashkil etildi. Bu esa xorijiy turistlar sonining o`sishiga va mahalliy aholining bandligini oshirishga olib keladi. Jumladan, yaqin kunlarda turistlarga qulaylik yaratish va xalqaro aviaqatnovlarni oshirish maqsadida Toshkent xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilinmoqda va loyiha uchun 430 mln dollar ajratilgan [6]. Shu bilan bir qatorda 2025-yildan Toshkent-Xiva “Jaloliddin Manguberdi” tezyurar poyezdi qatnovi yo`lga qo`yiladi. Buning uchun Buxoro-Urganch-Xiva temiryo`li 365 mln dollar investitsiya hisobiga elektrlashtiriladi. Kelgusi yetti yilda Xorazmda turizm uchun yo`l, elektr, suv infratuzilmasiga 200 mln dollar sarflanadi [7].

Turizm infratuzilmasi va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ijobiyligi ta'siri faqat daromad oshishi bilan cheklanmaydi. Yangi ish o`rinlarini yaratib, aholining ijtimoiy hayot sifati yaxshilanganligi kuzatilmoqda. Shuningdek, “2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o`sish sur`atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсади asosida to`siksiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish hamda 2026-yilgacha turizm sohasida band bo`lgan aholi sonini 2 baravarga oshirib 520 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan [8]. Sobiq Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov ma'lumotlariga ko`ra 2019-yilda sayyoqlar O`zbekiston shaharlarida o`rtacha 195 dollorgacha mablag` sarflab 2-3 kun qolishgan bo`lsa, 2022-yil sayohatlar davomiyligi 4-5 kunga, sarf-xarajatlar 305 dollorgacha oshgan [9]. Bu ham mamlakatimiz iqtisodi uchun foydadan holi emas, albatta.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo`lib, mamlakatning ijyimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Infratuzilmaning rivojlanishi nafaqat turistlar oqimini ko`paytiradi, balki yangi ish o`rinlarini yaratish mahalliy aholini daromad manbaalariga ega qilish va eksport xizmatlarini kenggaytirish imkonini beradi.

Investitsiyalar esa turizm sektorining uzviy qismi bo`lib, yangi mehmonxonalar transport tarmoqlari, dam olish maskanlari va madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va rivojlantirish uchun asosiy moliyaviy resurs hisoblanadi. Investitsiyalarning ko`payishi turistik salohiyatni oshiradi va milliy iqtisodiyotga ko`plab ijobiyligi ta'sir ko`rsatadi. Shunday qilib turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi, eksport xizmatlar hajmini oshiradi va xalqaro miqyosda raqobatdosh turizm industriyasini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda bugungi kunda mamlakatimizda turizm jadallik bilan rivojlanmoqda va shu bilan birga ushbu soha rivoji uchun quyidagi bir nechta chora-tadbirlarni chuqurroq amalga oshirsak foydadan holi bo`lmaydi, albatta:

1. Investitsiya muhitini yaxshilash;

2. Transport infratuzilmasini rivojlantirish;
3. Axborot texnologiyalarini joriy etish;
4. Mahalliy brendni rivojlantirish;
5. Ekologik turizmni rivojlantirish;
6. Kadrlar salohiyatini oshirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish mamlakatning turistik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Toshmatov Sharof Urakboyevich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi "Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati" maqolasi
2. [https://asr.gov.uz/news/12198?utm\\_source=chatgpt.comv](https://asr.gov.uz/news/12198?utm_source=chatgpt.comv)
3. Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna "Turizm asoslari", 46-bet
4. Turizmning dunyo mamlakatlari YaIMidagi ulushi: O'zbekiston eng past ko'rsatkichlilar orasida
5. [https://kun.uz/news/2018/04/13/turizmning-dune-mamlakatlari-aimidagi-ulusi-uzbekiston-eng-past-kursatkicililar-orasida?utm\\_source=chatgpt.com](https://kun.uz/news/2018/04/13/turizmning-dune-mamlakatlari-aimidagi-ulusi-uzbekiston-eng-past-kursatkicililar-orasida?utm_source=chatgpt.com)
6. <https://daryo.uz/2024/08/31/2024-yilning-7-oyida-ozbekistonga-qancha-turist-tashrif-buyurgan>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/09/airport/>
8. Toshkent-Xiva "Jaloliddin Manguberdi" tezyurar poyezdi qatnovi yo'lga qo'yiladi
9. [https://m.kun.uz/news/2023/06/13/toshkent-xiva-jaloliddin-manguberdi-tezyurar-poyezdi-qatnovi-yolga-qoyiladi?utm\\_source=chatgpt.com](https://m.kun.uz/news/2023/06/13/toshkent-xiva-jaloliddin-manguberdi-tezyurar-poyezdi-qatnovi-yolga-qoyiladi?utm_source=chatgpt.com)
10. Bolqiboyeva Ug'iloy Bolqiboy qizi TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi doktaranti "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari" maqolasi
11. Toshkent-Xiva "Jaloliddin Manguberdi" tezyurar poyezdi qatnovi yo'lga qo'yiladi
12. [https://m.kun.uz/news/2023/06/13/toshkent-xiva-jaloliddin-manguberdi-tezyurar-poyezdi-qatnovi-yolga-qoyiladi?utm\\_source=chatgpt.com](https://m.kun.uz/news/2023/06/13/toshkent-xiva-jaloliddin-manguberdi-tezyurar-poyezdi-qatnovi-yolga-qoyiladi?utm_source=chatgpt.com)